

TONG yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

www.tongyulduzi.uz

2011-yil
25-iyul
N:30
(66831)

ISSN - 2010-6092



Biz shunday dam olaymiz!

BOLALIK - BEG'UBOR FASL

Uning osmonlari keng va musaffo, olami hayrat va hayajonga to'la. Ana shu baxtiyor damlarning har bir bola uchun yanada maroqli o'tishi har jihatdan biz kattalarga bog'liq.

«Farg'onaazot» ochiq aksiyadorlik jamiyati tasarrufidagi «Kimyogar» bolalar sog'lomlashtirish oromgohi Quvasoy shahrining Qo'chqorchi qishlog'ida joylashgan. Bu bahavo maskanda har yili korxonaning mingdan ziyod farzandlari yozgi ta'tilni maroqli o'tkazishadi.

– Korxonamiz ishchi va xizmatchilari farzandlarining oromgohda mazmunli hordiq chiqarishlari, ma'naviy va madaniy tadbirlar o'tkazishlari, turli ko'ngilochar sport musobaqalari uyushtirishlari uchun barcha sharoitlar yaratildi, – deydi oromgoh rahbari Zokirjon Umarov. – Shuningdek, malakali tibbiy xodimlar dam oluvchilar salomatligini muntazam nazorat qilib turishadi. Mehnat, kashtachilik, ekologiya, kompyuter savodxonligi, stol tennisi, shaxmat-shashka, voleybol, basketbol, futbol to'garaklari bolajonlar ixtiyorida. «Kimyogar» madaniyat saroyi badiiy jamoasi tez-tez ular huzurida bo'lib, konsert dasturlari namoyish etishyapti. Bir so'z bilan aytganda, oromgohda hech bir bolaning zerikib qolishiga yo'l qo'yilmayapti...

Darhaqiqat, bu so'lim maskanda o'g'il-qizlarning yozgi ta'til kunlari maroqli va mazmunli o'tayotgani ularning yuzko'zlaridan ham ko'rinish turibdi.

Muhammadjon MAHMUDOV,
Marg'ilon shahri

USHBU SONDA:

Farzandinga
bir oyda
bir kitob

3-bet

Kompyuter
«USTASI»

6-bet

(Rivoyat)

Bir yigit sehrning oldiga kelib:

– Menga shunday sehr beringki, qo'lim bilan nimani ushlasam, oltinga aylanib qolaversin! – deya iltimos qilibdi.

– Keyin pushaymon qilmaysanmi? – so'rabdi sehrgar undan.

Yigitcha xaxolab kulgan:

– Ey, sehrgar, sen orzuimni amalga oshirasan-u, men xafa bo'lamanmi?! – debdi.

Sehrgar bir zumda uning iltimosini bajo keltiribdi.

Yigitcha ko'chaga chiqibdi va «O'zimni bir sinab ko'ray», deb daraxtdagi olmalarni ushlab ko'rgan ekan, ular oltinga aylanibdi va shu daqiqadan nimani qo'lga tutsa, oltinga aylanaveribdi. Bir kunning o'zida uyi oltin buyumlarga to'lib ketibdi. «Ana endi mazza qilib yashayman», deya xursand bo'libdi u.

Yarim tunga borib, gorni ochibdi: dasturxon boshida o'tirib, nonni qo'lga olgan ekan, u shu zahoti oltin likopchaga aylanibdi. Onasi

FAQAT QIZLAR BILISHI KERAKMI?

oldiga qo'ygan ovqatni ushlagan ekan, ovqat ham, kosa ham oltin bo'lib qolibdi. Bu holat ertasi kuni ham davom etibdi. Suv ichaman, deb ko'zani ushlagan ekan, u ham oltin tusiga kiribdi.

Oradan ikki kun o'tibdi.

Yigitcha och qolib, nihoyatda holdan toyibdi. Uyga kirib, «Buning biror chorasi bordir», deya kitobni ushlagan ekan, u ham oltin kabi qotibdi. Oradan bir hafta o'tib, yigitcha o'lar holatda to'shakka mixlanibdi va zor-zor yig'lab, odamlardan sehrgarni topishni iltimos qilibdi. Sehrgar yaxshi inson ekan, tezda yetib kelibdi va ustixonini suyagiga yopishgan ori qimsani ko'rib: «Sen o'sha yigitchamisani?» deb so'rabdi ishonmay. Yigitcha uning oyog'iga yopishib: «Menga oltin kerakmas, bir burda non, bir piyola suv bo'lsa, bas», debdi.

Sehrgar uni sinash uchun «Bunisi qo'limdan kelmaydi», deya yuzini teskari o'giribdi. Yigitcha yana zor-zor qaqshab: «Yo'q, menga oltin kerakmas, oltin bilan hech narsaga erishib bo'lmas ekan», debdi. Shundan so'ng, sehrgar uni bu azobdan xalos etibdi.

Bu bir rivoyat, albatta.

Ammo bu hikmatning zamirida juda katta ma'no borligini o'zingiz ham yaxshi bilasiz, aziz bolalar.

Siz uyingizda nimani ko'rsangiz, shunga moyillik sezasiz. «Qush uyisida ko'rganini qiladi», degan maqol bejiz aytilmagan. Yaxshilik qayerdan boshlanadi va u qayerdan keladi? Ma'lumki, xalqimiz o'z o'tirgan o'rnini, xonadonini toza,

«Oilaviy tarbiya masalasida xatoga yo'l qo'ymaslik uchun, avvalo, har qaysi xonadondagi ma'naviy iqlimni o'zaro hurmat, axloq-odob, insoniy munosabailar asosiga qurish ayni muddao bo'lur edi».

(I.KARIMOV. «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch», 55-bet)



ozoda tutgan. Bunda ham katta ma'no bor. Tozalik, ozodagarchilik odamning ko'nglini ochib, qut-barakani boshlab keladi.

E'tibor bering, «Falonchi uyini yomon tutar ekan», deydi. Bu behuda paydo bo'lmagan ibora. Xalqimiz qadimdan «uy tutish odobi»ga rioya qilib kelgan. Yaqinda bir tanishimiz pala-partish ish tutadigan hamkasbimizning uyini ko'rib, «Uy tutishi ham o'ziga o'xshab pala-partish ekan», deb keldi. Ko'pincha, bunday odamlardan nariroq yurishni ma'qul bilishadi.

Siz, o'quvchim, bu fikrlarni o'qiy, xulosa nima, deya shoshilayotganingiz aniq. Hozircha xonadon va sinfxona sizning boshpanangiz, ilm dargohingiz. Ularni bugundan toza, ozoda tutsangiz, ertaga sira kulgi bo'lmaysiz, qoqilmaysiz.

XIX asrda yashab ijod etgan fozila ayol Olimat ul-Banot qiz-ayollar uchun yozgan «Muosharat odobi» kitobida uy va xonalarni cho'pxaslardan, chang-tuproqlardan tozalab turishni, o'rgimchak uyalarini olib tashlab, chor-atrofni sof tutmoqni, yashash o'rinlarini, xususan, uy ichkarilarini yuvib quritmoqni, bu yerlarni is va shu kabilardan sof etmoqni, derazalarni ochib, uning havosini almashtirish va boshqa tozalik ishlarini uy tutmoq odobining ziyatlarini ekanligini ta'kidlab o'tadi.

«Vatan ostonadan boshlanadi» deb bejiz aytishmaydi. Bugun yigirma yoshga to'layotgan Vatan o'zimizniki, yo'llari, bog'lari, binolari o'zimizniki, chunki ularning bari bizga xizmat qiladi, shunday ekan, har sohada uning gullatuvchi farzandi bo'lishim kerak, degan ezgu niyatda yashash qanday yaxshi.

Shundan kelib chiqadigan bo'lsak, uy tutmoq odobini faqat qizlar emas, siz o'g'il bolalar ham bilishingiz kerak. Ozodalik sabog'ini sinfda o'zingiz o'tirgan partani ozoda tutishdan boshlab, o'zingizda bu fazilatni shakllantirib borsangiz, kelajakda o'zingizga foyda bo'ladi!

O'ylaymanki, shu mavzudagi insholaringizni bizga, albatta, yuborasiz.

To'lqin HAYIT

O'QUVCHI YON DAFTARIGA

EGALARIGA QAYTARILGAN KAZINA

«Boburnoma»da shunday yozilgan.

Bir yili Xitoydan kelayotgan karvon ahli O'sh tog'laridagi ko'chki ostida qolib, halok bo'lgan. Temuriy hukmdor Umarshayx Mirzo darhol qutqaruvchilarni yuborib, karvon yuklarini nazorat ostiga olgan va karvon ahli merosxo'rlarini qidirtirib toptirgandan so'ng ularni o'z mamlakatiga taklif etib, yuklarni bus-butun ularning qo'lga topshirgan.



870-YILDAGI IKKI VOQEA

Manbaalarda qayd etilishicha, Imom Buxoriy vafot etgan 870-yilda tariximizdagi buyuk siymolardan biri Imom Moturudiy tavallud topgan.

BIRINCHI QOMUSIY ASAR

Ensiklopediya yunon va fransuzcha so'z birikmasi «enciklopedie» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, «bilimlar doirasi» yoki «qomus» degan ma'noni anglatadi.

Birinchi ensiklopediya 1751-1780-yillarda 35 jildda mashhur yozuvchi Deni Didro boshchiligidagi, fransuz olimlari Monteske, Volter, Russo va D.Alamber tomonidan tayyorlanib chop etilgan.

Bizda «O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti faoliyat yuritadi. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasining 12 jildli nashri tayyorlangan. Unda dunyoning boy ilm xazinasi yig'ilgan.

Sen ham bu boylikka ega bo'lishga harakat qil, o'quvchim!

Kitobdir bilimdon, daho etguvchi,
Kishining nutqini ravon qilguvchi.
Ma'rifatning yo'li tomon elguvchi,
Bilimlar chashmasi o'zingsan, kitob.

Har bir o'qilgan asarlar asosida savol-javoblar o'tkazib, o'quvchilarni baholab bordim. Ko'proq kitob o'qigan o'quvchilarni rag'batlantirib turdim.

Navbatdagi ota-onalar majlisidan oldin esa o'quvchilar uchun savolnoma tayyorladim va ularning o'qigan asarlari haqida to'liq ma'lumotga ega bo'ldim.

Unga ko'ra, ba'zi bolalar kitob o'qishni

Farzandimga bir oyda bir

KITOB

O'quvchilarimizning badiiy kitoblarni ko'proq o'qishlari uchun nima qilishimiz kerak? Ushbu savol barcha ustoz-murabbiylarimiz oldida turgan dolzarb muammodir.

Men ko'p yillik tajribamdan kelib chiqqan holda o'zim rahbarlik qilayotgan sinfimdagi «Farzandimga bir oyda bir kitob» tadbirini o'tkazdim. Dastlab o'quv yili boshida o'quvchilarimni hamda ularning ota-onalarini tadbir rejasi bilan tanishtirdim, uning maqsadi, mohiyati va natijasi haqida suhbatlashdim. Har bir o'quvchimni ushbu tadbirda faol ishtirok etishga da'vat etdim. Har bir ota-ona bilan farzandiga har oyda bittadan badiiy kitob olib berishlariga kelishib oldik.

Men o'quvchilarimning o'qiyotgan badiiy asarlari yuzasidan suhbatlar tashkil qildim.



xohlaganlari holda ota-onalarining e'tiborsizligi tufayli kitob o'qimayotganligi ma'lum bo'ldi. Farzandlarining ma'naviy yuksalishiga e'tiborli bo'lgan ota-onalarni rag'batlantirdim.

Shu tarzda badiiy kitob o'qishga nafaqat bolalarni, balki ota-onalarni ham qiziqtirishga harakat qildim. Ayniqsa, «Men sevgan asar», «Kitob javonimdagi kitoblar» mavzusida o'quvchilar yozgan insholarning natijasi samarali bo'ldi.

Rahima MIRXOLIQOVA,
Toshkent viloyati, Pskent tumanidagi
1-umumta'lim maktabining
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Mustaqillik madhi bolalar ijodida

BAXT KALITI

Beixtiyor qalbmni bir savol chulg'aydi: dunyoda eng baxtli inson kim? Bu savolga yaqinlarim qanday javob berisharkin, ularning fikrlari bilan qiziqdim.



Shunda bobom: – Ona Vatan kelajagi, millatning ertasi, xalqning baxt-u saodati uchun kurasha oladigan insonlar, – deydi.

Momom esa: – Ona yer, ota-bobolarimiz yurti kimning beliga quvvat, ko'ziga nur, qalbiga orom bag'ishlansa, u eng baxtiyor insondir.

Otam: – Vatanimiz mustaqilligiga erishganimiz buyuk tarixiy g'alaba, bu g'alabani saqlab, mustahkamlashga harakat qilayotgan insonlar eng baxtiyordirlar.

Onam: – Farzandlari, oilasi yonida bo'lgan inson eng baxtlidir. Qalbmizni larzaga solgan urushning nomi o'chsin! Mard o'g'lonlarimiz hamisha omon bo'lsin, – deya mudom duo qiladilar.

Do'stim: – Eng baxtiyor inson shunday ozod va mustaqil yurtda yashayotgan barkamol avlodidir. Kel, birga mana shunday buyuk ne'matni ato qilgan ona yerga ta'zim qilaylik, jonajon Vatanimizga munosib bo'laylik, – deydi qalbida g'urur va iftixor bilan.

Shunda yana ham teran va chuqur anglab yetdimki, biz eng baxtiyor yoshlar ekanmiz. Negaki, qo'lga kiritgan barcha yutuqlarimizga istiqloq tufayli erishmoqdamiz. Baxtning sehrli dunyosini ochib beradigan kalit ham asli istiqloq emasmi?!

Kumushoy ABDURAZZOQOVA,
Bekobod tumanidagi 46-maktab o'quvchisi

«TONG YULDUZI»GA XAT KELDI



Sahifamizga siz o'quvchilardan ko'plab maktublar keldi. Odatdagidek, ulardan aksariyati she'r bo'lib, yosh qalamkashlar she'riy mashqlari borasida fikrimizni so'rganlar.

Aksariyat tengdoshlaringizning she'rlarini o'qib, ularni endigina qanot qoqishni o'rganayotgan palaponlarga o'xshatgimiz keladi. Ularning ijodidan bugungi kun nafasi ufuurib turibdi, ammo she'rlar ustida biroz «ishlash»lari kerak. Bu, ijodingiz yaxshi emas, deganimas, albatta. Yuqorida tajribasiz bo'lsa-da, onasi, yaqinlari yordamida kelajakda ko'klarga bemalol parvoz qila oladigan qushga aylanadi. Siz ham ijodan aslo yordamdan, o'qituvchi, murabbiylaringiz etadigan temir qanotli qushlarga aylanishingizga ishonchimiz komil.

Jizzax viloyati, Baxmal tumani, Novqa qishlog'idagi 8-maktabning 8-«B» sinf o'quvchisi Charos MAMATQULOVA she'rini «O'zim haqimda» deb nomlabdi:

Men asli she'riyat qizi emasman,
Alamlar, armonlar boshladi meni.
O'zi sari chorlab, sekin yetaklab,
Ijod dengiziga tashladi meni...

8-sinf o'quvchisining «Men asli she'riyat qizi emasman» kabi iqrordan bilinib turibdiki, u hali she'r yozishga tayyor emas, alam, armon bilan qorishib ketgan satrlari ham g'aliz chiqqanligini anglaymiz...

Ko'pgina o'quvchilar tomonidan yuborilgan she'rlarda ham, afsuski, mana shunday kamchiliklar uchrab turibdi.

Jumladan, Buxoro viloyati, Peshku tumanidagi 4-maktab-internat o'quvchilari Muhriddin MUZAFFAROVning «Vatan», «Onajon», «Cho'pon», Dilnoza NURIDDINOVAning «Ona», «Yurtim», «Vatan haqida», «Saxiy quyosh», Buxoro viloyati, G'ijduvon

she'riyat», Toshkent viloyati, Bekobod shahridagi 11-umumta'lim maktab o'quvchisi Zebo UMAROVANing «Yosh avlod», «Bolalik», «Do'stga o'git» nomli she'rlarida yuqoridagi singari ayrim kamchiliklar ko'zga tashlanmoqda.

Shuningdek, Xorazm viloyati, Qo'shko'pir tumanidagi 29-maktab o'quvchilari Madina YUSUPOVA, Mohira OLLOYOROVA, Mashhura BEKTURDIYEVA, 3-«A» sinf o'quvchisi Sanjarbek TO'YLIYEV, 6-«A» sinf o'quvchisi Shodiya IBRAGIMOVA, Jizzax viloyati, Forish tumanidagi 21-umumta'lim maktabining 6-«A» sinf o'quvchisi Sojida AKROMOVA, Andijon viloyati, Ishtixon tumanidagi 21-umumta'lim maktabining «Yosh qalamkashlar» to'garagi a'zolari, Jizzax viloyati, Zomin tumanidagi 5-o'rta maktabning 8-«G» sinf o'quvchisi Laylo TO'LAGANOVA, Jizzax viloyati, Yangiobod tumanidagi Sarmich qishlog'idan Jumagul XUDOYBERDIYEVA, Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 8-umumta'lim maktabi o'quvchisi Barno MAQSUDOVA, Sirdaryo viloyati, Guliston tumanidan

Sadoqat RUSTAMALIYEVA, Jizzax viloyati, Zafarobod tumanidan Muhammadjon TESHABOYEV, Surxondaryo viloyati, Denov tumanidagi 44-maktab o'quvchisi Yulduz O'SAROVA, Xorazm viloyati, Gurlan tumanidagi 42-maktabning 8-«B» sinf o'quvchisi Shahnoza KARIMOVA, Samarqand viloyati, Paxtachi tumanidan O'ktam MUHAMMADIYEV, Toshkent shahri, Yunusobod tumanidagi 274-maktab o'quvchisi Yulduz MO'MINOVA, Samarqand viloyati, Paxtachi tumanidagi 40-maktab o'quvchisi Muslim YO'LDOSEV, Farg'ona viloyati, Yaypan tumanidagi 50-maktab o'quvchisi Maftuna SOTVOLDIYEVA, Jizzax viloyati, Zarbdor tumanidan Abdumurod BOBOYOROV, Xorazm viloyati, Bog'ot tumanidan Munira MIRZAYEVA, Toshkent viloyati, Qibray tumanidan Shahnoza ERGASHEVA, Ra'noxon JO'RAYEVA, Xorazm viloyati, Xonqa tumanidagi 33-umumta'lim maktabining 6-«A» sinf o'quvchisi Mavluda ISKANDAROVA, Surxondaryo viloyati, Uzun tumanidagi 43-maktab o'quvchisi Rahima QAHRAMONOVA, Farg'ona viloyati, O'zbekiston tumanidagi 10-maktab o'quvchisi Sarvinoz MANSUROVA, Xorazm viloyati, Xonqa tumanidagi 33-umumta'lim maktabining 6-«A» sinf o'quvchisi Mavluda ISKANDAROVA, Jizzax viloyati, Arnasoy tumanidagi 7-umumta'lim maktabining 6-«A» sinf o'quvchisi Nargiza KO'CHAROVA o'z maktublarida ilk she'rlaridan namunalarni jo'natishgan. Bundan behad minnatdormiz. Ammo ular ijod namunalari avval ustozlariga, ona tili va adabiyot o'qituvchilariga ko'rsatib olishsa, ustozlarning ko'rsatmalariga amal qilgan holda ijod qilishsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bilasizmi, ko'pchilik taniqli shoirlar ilk she'rlari aynan mana shu bolalar nashrida chop etilganligini to'lqinlab gapiradilar. Siz ham kelajakda yaxshi ijodkor bo'lib, ilk she'rlaringiz aynan bizning gazetamizda chop etilganini gapirib yursangiz, ajabmas.

Biz bilan doim xat yozishib turing. Sizlardan yangi mazmundagi xatlaringizni kutib qolamiz!

Maktublarni Ozoda TURSUNBOYEVA saraladi

Farg'ona viloyati,
Bag'dod tumanidagi
1-umumta'lim
maktabining ona tili va
adabiyot fani
o'qituvchisi
Abdumannop
Toshtemirovdan
tahririyatimizga maktub
keldi. Gazetamiz
muxlislari hayron
bo'lishayotgandir biz
ham doim maktub
yo'llaymiz-ku, deb.



XOTIRA – DIL CHIROG'I

To'g'ri, tahririyatimizga har kuni o'quvchilarimizdan ko'plab xatlar keladi. Ularning hech biri e'tibordan chetda qolmaydi. Abdumannop akaning yozishicha, 5-sinfda o'qib yurgan kezlari ilk she'rlari gazetamizda chop etilgan ekan. Bundan ruhlanib yozgan she'rlari keyinchalik «Gulxan», «Guliston» kabi respublikamizning ko'zga ko'ringan nashrlarida chop etilibdi. Bizni yanada quvontirgan narsa shuki, Toshtemir aka ilk she'rlari chiqqan kundan boshlab «Tong yulduzi»ning har bir sonini o'qib, yilma-yil to'plab kelar ekanlar. Ayni damda ham dars jarayonida gazetamizdan foydalanib turishlari esa yanada e'tiborli.

YU.ABDULLAYEV

«MEHRIBONLIK» OROMGOHIDA

Bo'stonliq tumanining Qizilsoy qishlog'ida joylashgan «Mehribonlik» oromgohi Toshkent shahridagi 21-, 22-, 23-, Samarqanddagi 6-, 11- hamda Chirchiq, Navoiy va Zarafshon shahridagi «Mehribonlik uyi» tarbiyalanuvchilarini yana o'z bag'riga chorladi. Kuni kecha bu oromgohda turli soha vakillari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Tadbirni XTB ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'limi xodimi Jamoliddin Kamolov ochib berdi.

– Biz bu oromgohga har yili kelamiz, – deydi 23-«Mehribonlik uyi» tarbiyalanuvchisi Rustam Bozorov. – Bu yer juda chiroyli, havosi toza, ko'ngildagidek dam olishimiz uchun barcha sharoitlar bor: sport maydonchasi, hovuz, kutubxona, turli to'garaklar.

Diqqatimizni harbiy kiyimdagi bolalar

tortdi. Kichik askarlarning xatti-harakatlariga havasimiz keldi.

– «Mehribonlik uyi»lari qoshida harbiy sport sinflari tashkil etilgan, – dedi tarbiyachi-ofitser Nasrullo Samiyev. – Ular alohida harbiycha intizom va tartib asosida tarbiyalanadilar. O'zimizning harbiy orkestrimiz ham bor. Dasturga orkestrning chiqishi kiritilgan, hozir o'zingiz eshitib, baho berasiz.

Darhaqiqat, birozdan keyin harbiy orkestrning chiqishi e'lon qilindi. Bolakaylar xuddi kattalardek harbiycha kuy ijro etib, ishtirokchilarni hayratga solishdi.

Tantanaga kelgan mehmonlar dam oluvchilarga yaxshi tilaklar bildirib qaytishdi.

Zahro HASANOVA

«U» mening dunyodagi eng yaqin insonim, agar shunday deb atamoq joiz bo'lsa, eng qadrton do'stim, sirdoshim edi. Men «U»ni har kuni ko'rardim, «U» bilan suhbatlashardim, dardlashardim. «U» bilan juda baxtiyor edim...

Mana bir necha yildirki, uning borligini, yonimdaligini his etmay qo'ydim. Shu yillar davomida uni juda ko'rgim, «U» bilan yana dardlashgim, o'sha beg'ubor kunlarga qaytgim keldi. Ammo...

Kecha men «U»ni ko'chada ko'rib qoldim. «U»ni uchratdim. «U» bir talay bolalar bilan o'ynab yurgan ekan. «U»ni kuzatdim, uzoq kuzatdim... Izidan bordim, qancha yugurmay, unga yeta olmadim. «U» ko'zdan g'oyib bo'lgach, ko'cha ham qalbm kabi huvillab qoldi. Bu ko'chada o'zimni begonadek his etdim. Uyg'a keldim, yana «U» haqda o'ylay boshladim...

Ishonasizmi, «U»ning borligida g'am, tashvish, muammo, qayg'u neligini umuman bilmasdim. Endi-



chi? Endi esa «U» ketdi... «U» ketishi bilan muammolar, bir-birini takrorlamas tashvishli xayollar yuragimga soya solishga intildi, endi hatto eng quvonchli kunimda ham yuragimning bir cheti xira tortib turadi, chunki «U» hech qachon qaytib kelmaydi. Buni bilaman. Faqat tan olgim kelmaydi xolos...

Tengdoshlarimga qarayman, «Sen dunyodagi eng qo'rqoq insonsan, mana shuncha odamlar «U»siz yashayapti, hayotga ko'nik-yapti-ku», deyman o'zimga. Eh, bolalik, bolalik!

Sendan o'zi qachon ayrilgandim?

Sen o'zi mendan qachon butkul ketgan eding?

Senga juda o'rganib qolgan ekanman.

Seni juda sog'indim, hozir ham sog'inyapman, bilaman, seni 80 yoshimda ham sog'itanaman.

Mayli, deyman. Ko'nika-man...

Chunki bolalikning egasi yo'q...

Sevara MUSAYEVA,
O'zDJTU talabasi

MAQSADLARI ANIQ BOLALAR

Rasm chizishda Andijon shahridagi 31-maktabning 6-«A» sinf o'quvchilarining oldiga tushadigani yo'q ekan.

Bunga ular o'tkazgan «Yurtim mening nigohimda» nomli tadbirda amin bo'ldik. Mahorat bilan chizilgan har qanday rasm ijodkorni-yu tomoshabinni birdek to'lqinlantiradi.

Ayniqsa, davlatimiz Gerbi, Bayrog'i tasvirlarini ko'rganimizda, ularning Ona Vatanga cheksiz mehri va sadoqatidan behad quvondik. Rassomlikka havas qilib, maqsad sari intilayotgan Muhammadali Tursunaliyev, Muhammadaziz Qosimov, Asadullo Nazaraliyev kabi kichkintoylardan orzularini so'rganimizda, o'ylab ham o'tirmay rassom bo'laman, deyishdi.

Bolalikda qilingan niyat ijobat bo'larmish. Demak, maqsad sari intiling!

Alisher ABDULLAJONOV

3-sinfda o'qib yurgan kezlrim edi. Bir kuni maktabga hammadan barvaqtroq kelibman. Sinfda ustozimdan bo'lak hech kim yo'q ekan. Ular bilan qiziqishlarim, sevimli mashg'ulotim haqida suhbatlashib o'tirdik. Shunda ularga she'rlar yozishimni aytdim va o'tam,

onam, singlimga bag'ishlangan she'rlarimdan o'qib berdim. Ustozim, she'rlar daftaringni bir kunga berib tur, o'qib chiqay, dedilar.



Biror haftalar o'tib, daftaringni so'rasam, ustozim xonani ko'zdan kechirib, topa olmadilar. «Uyg'a olib ketgan bo'lsam kerak», deya uylarini ham qidirib keldilar, daftar topilmadi. Men juda xafa bo'ldim. Bu ishda ustozimni ayblamayman, ishlar bilan chalg'ib, birorta daftarning orasiga qo'shilib ketgan bo'lishi mumkin. Lekin kimdan xafa bo'lishni ham bilmasdim.

Shu noxush voqea sabab bo'ldi-yu, ijodga qiziqishim so'ndi...

Oradan yillar o'tdi. 6-sinfga qadam qo'ydik. Sinfimizga Muxlisa ismli yangi qiz keldi. Ma'lum bo'lishicha, u ham she'r yozar ekan. Bir kuni darsdan keyin u bilan biroz aylandik. Mening ham she'rlar mashq qilishimni bilgach, birorta she'ringizni o'qib bering, deya iltimos qildi. Men uch yil avval bo'lgan voqeani aytib berdim.

– Birgina shu voqeani deb ijod zavqidan voz kechish mumkinmi, axir?! Axir shoirlar sabr-bardoshli, mustahkam irodali, qiyinchiliklardan qo'rqmaydigan bo'lishi kerak. Agar bir hafta ichida she'r yozmasangiz, bunday fazilatlar sizda mujassam emasligini tan olgan bo'lasiz, – dedi.

Dugonamning gapidan o'zimga xulosa chiqarib oldim va yana ijod qila boshladim. Hozirda yozgan she'rlarim respublika nashrlarida ham chop etilyapti. Buning uchun dugonamdan behad minnatdorman.

Ozoda BAXSHULLAYEVA,
poytaxtdagi 149-maktabning 7-«A» sinf o'quvchisi

Mustaqilligimiz abadiy
Balsink



Farg'ona viloyati, Rishton tumanidagi
33-umumta'lim maktabi o'quvchisi
Shohistaxon TO'XTASINOVA chizgan
rasmini istiqlol bayramiga bag'ishlabdi.

DINOVA «Jannatmakon yurt» nomli maqolasida mustaqil diyorumizga shunday ta'rif beradi:

«Avvallari yurtimizga nisbat qilinadigan «jannatmakon diyor» iborasini ko'p eshitardim-u, ma'nosini chuqurroq anglab yetolmas edim.

– Bobojon, yurtimizni nima uchun jannatmakon deyishadi? – so'radim bir kuni bobomdan.

– Yaxshisi, men senga yigitlik chog'imda sodir bo'lgan bir voqeani aytib beray, xulosani o'zing chiqarib olarsan, – dedilar bobom va quyidagi voqeani so'zlab berdilar:

«Hozirda istiqlol tufayli farzandlarimiz harbiy xizmatni o'z yurtimizda o'tashyapti. Avvallari yigitlik burchini o'tash uchun uzoq yurtlarga, uzoq muddatga yuborilardi. Men ham olis Vladivostok shahrida harbiy xizmatda bo'lganman. U yerda qattiq sovuq bo'lgani bois og'ir betob bo'lib qoldim, harbiy gospitalda uzoq muddat davolandim. Shifokorlardan biri:

Shahrisabz tumanidagi 98-umumta'lim maktabining 9-«A» sinf o'quvchisi Go'zal Yashinova.

– O'zbekistonimiz navqiron yigitlik yoshiga yetibdi-ya! Albatta, bu unchalik katta yosh emas. Lekin shu oz fursat ichida u misli ko'rilmagan yutuqlarni qo'lga kiritdi. Bu yurtida, ayniqsa, biz yoshlarga katta e'tibor qaratilyapti. Sport yo'nalishidagi «Umid nihollari», ijodkor yoshlar uchun «Yangi avlod» ijodiyot festivali, iqtidorli, bilimdon, zukko qizlarimiz uchun «Zulfiyaxonim» nomidagi Davlat mukofotining ta'sis etilishi fikrimizning dalili bo'la oladi.

– Aminmanki, bunday e'tibor, g'amxo'rliklarga javoban yoshlarimiz ham O'zbekiston nomini ko'klarga ko'tarib, g'alabalari sharafiga yangragan madhiyamizga



O'tayotgan har bir kunimiz bizni yurtimiz mustaqilligining 20 yillik to'yi nishonlanadigan hayajonli sana sari yaqinlashtirmoqda. Shunday faraxbaxsh kunlarda kim bilan suhbatlashmaylik, xoh katta bo'lsin, xoh kichik, gap-so'zlarida bayramona bir shukuhni, ko'tarinkilikni sezib turamiz. Yoshi ulug' insonlar istiqlolning naqadar ulug' ne'mat ekanligini bot-bot ta'kidlashsa, yoshlar ularga berilayotgan keng imkoniyatlar, shart-sharoitlar haqida to'lqinlanib so'zlashadi.

Ayni kunlarda tahririyatimizga Siz aziz o'quvchilardan kelayotgan maktublarga ko'z yugurtirar ekanmiz, satrlarda istiqlol madhi tarannum etilayotganiga guvoh bo'lamiz. Kimdir she'r, kimdir lavha, yana kimdir badi'a yozib yuboryapti, qo'ying-chi, yurtimiz to'yiga sov'ga hozirlashyapti. Keling, satrlarga birgalikda ko'z yugurtiraylik:

Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz tumanidan Hulkar ERGASHEVA «Orzu ro'yobi bilan go'zal» nomli maqolasida shunday yozibdi:

«Orzu! Naqadar go'zal tuyg'u! Har kim istaganicha orzu qiladi. Lekin u ro'yobi bilan go'zal. Buning uchun esa inson astoydil mehnat qilishi, maqsad sari intilishi lozim.

Mening orzularim ham cheksiz. Ularning ichida eng ulug' i – xalqimga munosib farzand bo'lib, yurtim koriga yarash. Buning uchun esa istiqlol tufayli biz yoshlarga yaratib berilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanib, puxta bilim olib, komil inson bo'lishimiz lozim».

– Vatan barchamizniki, – degan so'zlar bilan boshlabdi o'z badiasini Samarqand viloyati, Oqdaryo tumanidagi 45-ixtisoslashtirilgan maktabning 9- sinf o'quvchisi Maftuna ESONOVA «Vatan ichra mo'jaz Vatanim!» nomli maqolasida. – Uning har qarichini ko'zlariga to'tiyo qilish, g'araz niyatli kimsalardan himoyalash shu muazzam yurt farzandiman degan bir yosh avlodning muqaddas va sharaflı burchimizdir. Har tong govmushimni yetaklab, uyimizdan 2-3 chaqirim naridagi bog'imiz tomon borarkanman, sharqdan Mehrjon bosh ko'tarib chiqa boshlaydi. «Bu mustaqil Vatanim, ozod va obod yurtim oftobi!» deyman zavq-u shavqqa to'lib. Unga qarab: «Assalom, Quyoshim – zaminning shamsi, xurshidi tobonim!» deya salomlashgim keladi u bilan.

Men ikki daryo oralig'idagi so'lim go'shada yashayman. Qadimdan Oq va Qora daryolardan suv ichib kelayotgan Oqdaryoimni Vatan ichra mo'jaz Vatan deya ardoqlayman...

Sirdaryo viloyati, Mirzaobod ijtimoiy-iqtisodiy kasb-hunar kolleji talabasi Shahnoza SHAMSID-

Yurtimizning birgina bog'-u rog'lari emas, osmono'par tog'lari, ming dardga davo zilol suvlari, unumdor, serhosil tuprog'i, muqaddas qadamjolari, mehridaryo insonlari kabi tariflari son-sanoqsiz. Istiqlol tufayli yanada chiroy o'chgan O'zbekistonimizga yer yuzida «Yaratganning nazari tushgan diyor» deya ta'rif berilyapti...»

Bobom hikoyasini tinglab, ona yurtimga bo'lgan mehrim yanada ortdi va unga loyiq farzand bo'lishni o'z oliy maqsadimga aylantirdim...»

Xorazm viloyati, Xonqa tumani, Sarapayon qishlog'idan maktab yo'llagan Manzura Jumaniyozovaning istiqlol madhini kuylab yozgan «Iftixor» nomli she'rida shunday misralar, o'rinli qiyoslashlar bor:

Quyosh yurtimizga saxiy nur sochar,
Har tong ko'ngillarga mehr ulashar.
Gullarni avaylab, barglarni silab,
Insonlar quyoshdan kuch olib yashar.

«Yurtim mana yana bir yoshga ulg'aydi, – deb boshlabdi o'z maqolasini Qashqadaryo viloyati,



Surxondaryo viloyati, Denov tumanidagi 30-umumta'lim maktabining 2-«A» sinf o'quvchisi Sug'diyonabegim MAMARASULOVA chizgan rasmini «Ona yurtim» deb nomlabdi.

SATRLARDA ISTIQLOL MADHI

– Men senga bir dori beraman, muntazam yeb yursang, sira kasal bo'lmasan, – deya qo'linga bir xaltacha tutqazdi. Ochib qaragam, ichida bir hovuch mayiz bor ekan. Uni qo'linga olar ekanman, ko'z oldimda hovlimizdagi uzumzor, mevalar g'arq pishgan bog'imiz gavdalandi. O'shanda men jannatmakon diyorda yashayotgan ekanman, degan fikr xayolimdan o'tgandi.

boshlarini mag'rur tutib, qo'llarini ko'ksilariga qo'yib jo'rovoz bo'lardilar».

Sirdaryo viloyati, Xovos tumanidagi 10-umumta'lim maktabi o'qituvchisi Asliddin Boliqulov esa yurtimiz mustaqilligining 20 yilligiga bag'ishlangan viktorina savollarini yo'llabdi:

VIKTORINA SAVOLLARI

1. O'zbekiston Respublikasi nechanchi yil jahondagi avtomobil ishlab chiqaruvchi 28-davlatga aylandi?
 2. «Umid nihollari» sport o'yinlari birinchi marta qaysi viloyatda o'tkazilgan?
 3. O'zbekiston Respublikasining maydoni qancha?
 4. «Avesto» kitobining 2700 yilligi nechanchi yil nishonlangan?
 5. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng ta'sis etilgan birinchi ordeni qaysi?
 6. Istiqloldan so'nggi yozgi olimpiada o'yinlarida birinchi oltin medal qaysi sportchimiz tomonidan qo'lga kiritilgan?
 7. 1999-yil may oyida Toshkentda o'tkazilgan kurash bo'yicha birinchi jahon chempionatida nechta mamlakat vakillari ishtirok etishgan?
 8. «GM. Uzbekistan» qo'shma korxonasi qaysi davlat bilan hamkorlikda qurilgan.
 9. Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarini bog'lovchi eng muhim temiryo'l qurilishi qaysi?
 10. Yurtimizdagi qaysi shahar «Aysesko» tashkiloti tomonidan «Islom madaniyati poytaxti» deya e'tirof etildi?
 11. «Sharq taronalari» musiqa festivali yurtimizdagi qaysi shaharda bo'lib o'tadi?
 12. «SAM Avto» qo'shma korxonasi asosan qanday mahsulotlarni ishlab chiqaradi?
- Aziz bolajonlar, ushbu viktorinaga birinchilardan bo'lib to'g'ri javob yo'llagan o'quvchilarning ism-shariflari gazetada e'lon qilinadi.

Mana, aziz o'quvchilar,
tengdoshlaringizning dil so'zlari bilan
tanishdingiz. Aminmizki, Sizing ham yurtimiz
to'yiga to'yona bo'lgudek yutuqlaringiz ko'p.
Maktublaringizni kutib qolamiz.

Feruza JALILOVA

**YANOG'INI O'PGANDA
OSMON**

Tun ko'ksiga taqib yulduzlar,
Oy yanog'in o'pganda osmon.
Tikiladi mehribon ko'zlar:
– Bolam bo'lsin, – deya, – sog'-omon.

Ko'zlarida chaqnardi olov,
Endi undan uchqun qolmadi.
O'nta bo'lsa, o'rnimiz bo'lak,
Bizga mehr berib tolmadi.

Dardlarimni yuvgan daryodek
Mehr ila bizni ovtgay.
Bizga baxt-u iqbolni so'rab,
Mehnatining hosilin kutgay!

Zahro O'LMASOVA,
Toshkentdagi 254-maktabning
9-sinf o'quvchisi

**MUDOM OMAD
TILAYDI**

Bir ulug' zot qoshida,
Doim ta'zim qilamiz.
Olamiz undan saboq,
Cheksiz mehrin bilamiz.

O'rganamiz ulardan,
Dunyo ilmlarini.
Bizga baxshida etar,
Topgan bilimlarini.

Barchamizni barobar,
Boshimizni silaydi.
Yetaklab dovonlarga
Mudom omad tilaydi...

Dildora ABDOVOITOVA,
Toshkent Davlat iqtisodiyot
universiteti qoshidagi aniq
fanlarga ixtisoslashtirilgan
davlat umumta'lim
maktabining
7-sinf o'quvchisi

KIM AYYOR?

Yong'ir sharros quydi-yu,
Bir zunda chiqdi quyosh.
Tulki bolaladi, deb,
Osmonga boqar G'iyos.

Konfetini yeb qo'yib,
«Tulki yedi-ku», deydi.
Aslida tulki emas,
Akasi ayyor edi.

Bobur UBAYDULLAYEV,
Samarqand viloyati, Qo'shrabot
tumanidagi
16-maktab o'quvchisi

**SINFDOSHIM O'QIYAPTI
«TONG YULDUZI»!**

Qadriyati qadr topgan chaman el bu,
Moziylarga qadaladi har ildizi.
Ma'rifatning ziyosidan olib yog'du,
Bolalari o'qiyapti «Tong yulduzi»!

Nigohida teran ma'no qarasangiz,
Beg'ubordir orzulari, bosgan izi.
O'z yo'lini topish uchun so'rasangiz –
Bolalari o'qiyapti «Tong yulduzi»!

Vatanimiz yagonadir, u bittadir,
Yangrayapti dildan chiqqan o'tkir so'zi.
Bilimini ko'z-ko'z qilib dunyolarga,
Bolalari o'qiyapti «Tong yulduzi»!

Yurtim nurli kunlarining zavqin quchib,
Mehmonlarni qarshilaydi yorug' yuzi.
Quvonchorda oqqush kabi parvoz aylab,
Sinfdoxim o'qiyapti «Tong yulduzi»!

Go'zal JUMANIYOZOVA,
TATU Urganch filiali qoshidagi
1-sonli litsey talabasi

MAHALLAMNI**OBOD QILDIM**

Xabaringiz bor, mamlakatimizning turli go'shalarida Mustaqilligimizning 20 yilligini munosib kutib olish uchun qizg'in tayyorgarlik ishlari ketmoqda. Bunyodkorlik ishlari bilan bir qatorda obodonlashtirishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Ko'p qavatli uylar atrofi, mahallalardagi tozalikni ko'rib, ko'zing quvnaydi. Bizning ko'p qavatli uyimiz atrofida ham chiroyli bog'lar barpo etildi. Mahalla faollari bilan birgalikda dam olish kunlari hashar uyushtirib, ana shunday chiroyli joyga ega bo'ldik. Eng asosiysi, bu bog'larni bunyod etishda sizning tengdoshlaringiz, ta'ildagi bolajonlar ham katta yordam qilishdi. Hozirda ular bog'larini yer-u ko'kka ishonishmaydi. Har kuni erta tongda atrofni aylanib chiqishadi. Biror-bir qog'ozmi yoki yelim idish tushib qolgan bo'lsa, terib olib, chiqindi qutisiga tashlab kelishadi. Eng qizig'i, bolalarning tabiatga mehri biz kattalarni ham hushyor torttirib qo'ydi. Ilgari qo'ni-qo'shnilar yig'ilishib qolsak, tamaki chekib gurung qilardik. Endi esa bunday qilishga istihola qilyapmiz. Chunki tevarak-atrof shu darajada ozoda va sarishtaki, uni iflos qilgning kelmaydi.

Bizning mahallamizda shunaqa gaplar! Sizlarnikidachi? O'z bog'ingiz bormi? Agar bo'lmasa, bugunoq ishga kirishing. Bu ishda kattalar sizlarga, albatta, yordam berishadi. Maktab quchog'iga qaytganingizda, ta'ilda nima qildingiz, deb so'rganlarida, hech ikkilanmay, mahallamni obod qildim, deysiz g'urur bilan.

Yusuf ABDULLAYEV

DO'STLIK MO'JIZA

(Mitti hikoyalar)

YARATADI

Xalqaro olimpiadada ishtirok etish menga ham nasib etgandi. Yodimda bor, olimpiadaning uchinchi kuni mezbonlardan birining o'g'li Jenyani mashina urib yubordi. Buni ko'rgan qozog'istonlik Burxonning yuragi yomonlashdi. Biz Otobek, latviyalik Marina, amerikalik Veronika, Shimoliy osetiyalik Yana birgalashib Burxonni shifoxonaga olib bordik.

Shifoxona hovlisida barchamiz o'z tillarimizda Burxon va Jenyaga shifo tilardik. Ertasiga Burxon, sal o'tmay Jenya ham sog'ayib ketdi.

Men o'shanda do'stlikning kuchi hatto mo'jizalar yaratishga qodirligiga yana bir karra amin bo'ldim.


KOMPYUTER «USTASI»

– Kompyuterni Baxti rosa yaxshi biladi, – ustozimiz savoliga chug'urlashib javob berishdi sinfdoshlarim. – Uyida kompyuter bor.

Shunda ustoz mendan ikki qog'ozli matnini ko'chirib berishimni iltimos qildilar. «Bilmayman», deb to'g'risini aytolmadim.

Noiloj harf terishga harakat qildim, hech o'xshamadi. Bir hafta ustozning ko'ziga ko'rinmaslik uchun maktabga bormadim...

Do'stlarim bilan kompyuterda har xil o'yinlar o'ynaymiz. Bu borada mendan o'tadigan yo'q. Hamisha g'olib bo'laman. Biroq, oddiygina matn terishni ham o'rganmaganligimdan juda uyaldim.

**INTIZOM**

Bolalar bilan navbatdagi futbol o'yinini boshladik. O'yin juda yaxshi ketayotgan edi. Biroq, to'p ikki marta ketma-ket menga zar bilan tegdiki, «dod» deb yuboray dedim. Yana kimning zarbasi deng? Kichkinagina Jahongirning tepkisi-ya!

Men ham qarab turmadim, jahl otiga mindim-da, to'pni kuch bilan unga shunday «oshirdimki», to'g'rirog'i, to'p meni «oshirib» yubordi-yov!

Bir payt o'zim yerda «tepileb» yotibman. Zarbning zo'ridan oyog'im sinib, qo'lim esa lat yedi. Oyog'imning orasiga temir qo'yishdi, jarrohlik yo'li bilan davolashdi. Ancha vaqt maktabga ham borolmadim.

Bu voqeadan shunday xulosa chiqardimki, sportda ham intizom birinchi o'rinda turar ekan.

Feruza SOYIBJON qizi



BIRINCHI TARIXIY G'ALABA

bunga o'smirlar terma jamoasi asos soldi

Asqar TOLIBJONOV, terma jamoalar markazi direktori:

jahon chempionatlaridagi birinchi tarixiy g'alaba hisoblanadi.

Qadrli futbolsevar bolajonlar! Bu yilgi yo'zgi ta'tilingiz juda maroqli o'tyapti-a? Chunki mamlakatimiz o'smirlar terma jamoasi Meksikada bo'lib o'tgan jahon chempionatida qatnashib, qahramonga aylanishganiga guvoh bo'ldingiz. Axir dunyoning eng kuchli sakkizta jamoasi qatoriga kirishimizning o'zi olamshumul voqea, shunday emasmi? Bu voqea xalqimizning buyuk g'alabasi sifatida tarix zarvoraqlariga muhrlandi. Yurtimizda bolalar futboliga berilayotgan e'tiborning samarasi bu.

Xabaringiz bor, Aleksey Yevstafeyev shogirdlarining yuksak mahorati Prezidentimiz tomonidan munosib taqdirlandi. 13 nafar futbolchilarga «Spark», ularning bosh murabbiyi Yevstafeyevga «Epika», katta murabbiy Ahmadjon Musayevga esa «Lasetti» avtomobillari taqdim etildi.

Yurt faxriga aylanib, barchaning mehrini qozongan akalaringizga avtomobillar kaliti Olimpiya shon-shuhrati muzeyida topshirildi.

– O'smirlar terma jamoasi Meksikada sezilarli siljish qildi. Bu g'alabaga yelkama-yelka turib erishdik. Maqsad sari intildik. Jamoalarimiz uchun barcha sharoitlarni yaratib berdik. Shunday ekan, ulardan natija talab qilishga ham haqqimiz bor, – deb o'ylayman.

Aleksey YEVSTAFEYEV, o'smirlar terma jamoasi bosh murabbiyi:

– Bu g'alaba xalqimiz uchun juda zarur edi. Endi bizda keyingi bosqichga chiqish uchun imkon bor. Bu O'zbekiston uchun

Abbosbek MAXSTALIYEV, jamoa sardori:

– Biz chorak finalga yetib borgandik. Urugvay bizdan kuchlilik qildi. Shunday bo'lsa-da, torreonliklar termamizga cheksiz mehr qo'yдилar, ularning qo'llab-quvvatlashlari bizga katta dalda bo'ldi. Mundialdan so'ng menga xorijdan takliflar bo'layotganini hamma gapirib yuribdi. Bu narsaga hali oydinlik kiritilgani yo'q.

Temur HAKIMOV, jamoa hujumchisi:

– Meni gazetalarda «Meksika filmlarining yangi qahramoni» deya erkalatib tanishtirishdi. Chindan ham torreonliklarga yoqib qoldim. Ularning qurshovidan zo'rg'a qutuldim, – deya kuladi u. – Hozircha menga hech qaysi xorij klublaridan taklif bildirilmadi. Bizni qahramonlardek qarshi olgan Yurtboshimizga, muxlislariga, ota-onamizga, ustozlarimizga minnatdorchilik bildiraman.



Aleksey Yevstafeyev AQSH bilan o'yin oldidan FIFAning bosh koordinatori Gari Morettidan turnir topishmog'i bo'lgan savolni so'radi:

– Torreonda kun harorati 46-49 daraja issiq. Ammo nega o'yinlar qoq tushlikda o'tkazilmoqda? Kechki salqinda o'ynash mumkin edi-ku?!

Gari Morettining rasmiy bayonoti har doimgidek aniq va tiniq bo'ldi: «Bu FIFA hamda mahalliy tashkiliy qo'mitaning qarori, uni o'zgartirishning iloji yo'q».

FIFAning avstraliyalik mutasaddisining javobi juda qiziq! Eshiting: «Jahon chempionati bilan bir vaqtda AQSHda Kopa Amerika musobaqalari ham o'tkazilyapti. Tabiiyki, Meksika uchun ko'proq milliy terma jamoa o'yinlari qiziqroq. Mahalliy telekanallar aynan shu turnir orqali daromad orttirishga harakat qilishadi. Kopa Amerika

O'YINLAR NEGA QOQ TUSHLIKDA O'TKAZILDI?

musobaqalari esa kechki salqinda boshlanadi. Demak, biz ishtirok etayotgan Jahon chempionati bahslarini tijorat tarozisi bilan o'chaganimizda, kechki salqinda o'tkazilishi mumkin emas. Chunki efirning bu vaqti Kopa Amerika o'yinlari bilan band bo'ladi. Qisqasi, efir vaqtlari kesishib qolmasligi uchun ham FIFA o'yinlarni soat 15:00 va 18:00da o'tkazishga qaror qilgan.

Harorat shunday yuqoriki, zaxira o'rindig'ida o'tirgan odam bir yarim soat ichida hech bir harakatsiz 2 litr suv ichgan bo'lsa ham, chanqayveradi. Quyosh shunday charaqlaydiki, inson ko'zini to'liqligicha ochib, maydonga qaray olmaydi. Buning ustiga stadion rahbariyati birinchi bo'lim o'rtalarida yoritish moslamalarini yoqadi. Nima uchun? Bu javobsiz savol. Qiziq, quyosh chorakam to'qqizda botsa, yoritish moslamalarini yoqib, tabiiy nur bilan qorishtirishdan ne foyda edi? Bu ham savol ustiga savol.

Jazirama quyosh tig'ida ham terma jamoamiz a'zolari kuchli sakkizlikdan joy oldilar. Bu haqiqiy g'alaba edi!



MEKSIKADA OSH QILDIK

Chexiyaga qarshi tarixiy g'alabadan so'ng futbolchilarga bir kun dam berildi. Ular istagancha uxladilar, dam oldilar.

Futbolchilarimiz miriqib dam olgunlaricha, jamoa delegatsiyasi va murabbiylar shtabi osh tayyorlab berdilar. Meksikada qozon, kapgir, sariq sabzi, qo'y go'shti qayoqda deysiz? Meksikalik Kristofer Pollet dunyoda sariq sabzi borligini ham bilmas ekan. Nachora, bor masalliqlardan foydalandik.

Sabzi archildi. To'g'rash boshlandi. Avvaliga Asqar aka Tolibjonov, Murod aka Ismoilov va Rustam Mehmonov oshning asosiy masallig'i bo'lgan sabzini o'zlari to'g'rashdi. Sal keyin mehmonxona oshpazi ham to'g'rashni boshlab yubordi. Avvaliga yirik-yirik qildi, keyin esa binoyidek to'g'ray boshladi. Biz ularning ishini mazza qilib tomosha qildik.

Palovni Abdulla Achilov va Murod aka tayyorlashdi. Xuddi mashhur telekanaldagi osh musobaqasiga o'xshab. Bir qozonda bir oshpaz, ikkinchisida boshqa oshpaz. Jami olti kilogramm osh damlandi.

O'zbekcha shakarob ham tayyorlandi. Futbolchilarimiz to'yib-to'yib ovqatlanishdi. Meksikada bizni og'irimizni yengil, mushkulimizni oson qilgan do'stalarimizni ham osh bilan siyladik. Shu tariqa o'zbek palovi Meksikaga «eksport» qilindi.

Kunning ikkinchi yarmida o'smirlarimiz Torreon markazidagi Galerias ko'ngilochar markaziga borib aylanishdi. Kimdir o'ziga butsa, yana kimdir mayka, futbolka va sovg'a-salomlar xarid qilishdi.

Torreon – Meksika, O'FF Matbuot Kotibi Sanjar RIZAYEVning kundaliklarini Ma'mura MADRAHIMOVA oqqa ko'chirdi



